



## OG'ZAKI NUTQNI RIVOJLANTIRISHDA TEZ AYTISHLARNI O'ZBEK O'QUV MUASSASALARIDA O'QITISH BO'YICHA METODIK TAVSIYALAR

Najimidinova Nafisaxon Ismoiljonovna  
Chirchiq shahri 9-maktab ingliz tili o'qituvchisi

**Annotatsiya.** Ingliz tilini barcha yoshdagi til o'rganuvchilar birdek sevib o'rganishmoqda, chunki ingliz tili bu – xalqaro til bo'lib, ko'pchilik davlatlarda ichki va tashqi savdo aloqalari, turizm sohalari aynan ingliz tilidagi muzokaralar asosida amalga oshiriladi. Bundan tashqari ingliz tilini o'rgangan inson boshqamillat vakillari bilan birorta qiyinchiliklarsiz fikr almasha oladi. Ushbu maqolada og'zaki nutqni rivojlantirishda tez aytishlarni o'zbek o'quv muassasalarida o'qitish bo'yicha metodik tavsiyalar haqida so'z yuritiladi.

**Kalit so'zlar:** og'aki nutq, til, ingliz tili, tez aytish, metodika, talaffuz, ko'nikma.

**Asosiy qism.** Ma'lumki, nutqiy muloqot ayrim belgilar, so'zlar, so'z birikmalari va nutqiy konstruksiyalar asosida amalga oshiriladi, bular esa turli tillarda turlichadir. Ko'plab ingliz tili o'rganuvchilari nutq jarayonida so'zlarni xato talaffuz qilish orqali suhabatdoshiga o'zi ifodalomoqchi bo'lgan fikrni yetkazdirib bera olmaydi. Albatta, buning sabablari turlicha bo'lishi mumkin. Ammo asosiy sabablardan biri shuki bu 2 til grammatikasi va fonetikasi o'rtaqidagi farqdir. Masalan, O'zbek tili va ingliz tili fonetikasida katta farqning mavjudligi til o'rganuvchilarning talaffuzida ko'plab so'zlarni xato talaffuz qilinishiga olib kelyapti. Bu kabi muammolarni bartaraf etish uchun til o'rgatish jarayonida noan'anaviy darslar tashkil qilib, interfaol o'yinlardan foydalanish kerak. Bu o'qitish metodlari nafaqat o'quvchilarni balki ular o'rtaida raqobatasosida darsni yanada qiziqarliroq bo'lishiga, hamda o'quvchilarning ingliz tilini o'rganishga bo'lgan ishtiyoqlarini kuchaytirishga xizmat qiladi.

Boshlang'ich sinflarda asosan kommunikativ yondashuv orqali ilk nutqiy ko'nikmalar shakllantirib boriladi, bunda bolalar qo'shiqlari, she'rlar, tez aytishlar muhim o'rin tutadi. Darsda faol harakatli o'yinlardan foydalanish orqali ko'zlangan natijalarga erishish mumkin. Chet tili o'qitishning og'zaki jihatdan ilgarilab ketishi tamoyiliga ko'ra til materialini o'rganish og'zaki nutqda va o'qishda bir vaqtida olib borilmaydi. Bu bosqichda til materialini o'rganish quyidagi sxema asosida olib boriladi: tinglab tushunish (Listening)-gapirish (speaking)-o'qish (reading)-yozish (writing).

Metodist olim Yagang (1994) ning fikricha ingliz tilini o'rganayotgan tinglovchi o'ziga bir mucha tanish bo'lgan aksentni esda saqlab qoladi, unga ko'nikadi, natijada boshqa aksentda gapirilgan nutq unga g'alati qovushmagandek eshitilishi mumkin. Tinglab tushunish ingliz tilini o'zlashtirishga muhim belgisi hisoblanadi. Tinglanayotgan material tushunishga xalal beruvchi omillarni bartaraf etish mashquloti jarayonida talabidan zukkolik, e'tiborlilik, mehnat va tajriba talab etiladi.

Yuqoridagi kabi muammolarni oldini olish uchun quyidagi interfaol o'yin usullarini taqdim qilamiz:

- Kviz kartochkalari (Quiz Cards) bu biror mavzu o'tib bo'lingach, o'tkaziladigan nazorat savollaridir. Bunday paytda tayyorlanish uchun savollar uyg'a berilmaydi. Savollar kartochkalarga yoziladi. 1-komanda kartochkalarga biror mavzu doirasidagi so'zlardan yozadi va uni 2-komandaga (spelling) tovushlar ketma-ketligida aytadi. 2-komanda esa berilgan so'zni to'g'ri talaffuz qilishi kerak. Bu o'yindan tovushlar mavzusini o'tib bo'lgandan so'ng foydalanish qo'l keladi. O'yin jarayonida har ikkala komanda ishtirokchilari so'zni to'g'ri talaffuz qilish uchun so'zlar spelling qilinayotgan vaqtida diqqat bilan tinglaydi. Albatta, bu o'yin o'qituvchi tomonidan nazorat qilib boriladi. Bu o'yin o'rganuvchilarning eshitish va tinglash qobiliyatini o'stradi. – Pantomima (Pantomine) bu usul juda qiyin mavzular tushuntirilishi kerak bo'lgan darsda yoki yozma mashqlar bajarilib, til o'rganuvchilar charchagan paytda foydalansa bo'ladi.



- Tezkor javob (Quick answers) bu usuldan takrorlash darslarida foydalanilsa bo'ladi. Bu o'yinda o'quvchilar sonining ko'p bo'lishi ahamiyatga molikdir. O'yin koptokcha orqali musiqa sadosi ostida boshqariladi. O'qituvchi 1-bo'lib o'yinni boshlab beradi. Bu o'yinni aynan bo'gin va uning turlarini takrorlash mavzusida qo'llansa o'quvchilar xotirasida takrorlanayotgan mavzu yanada mustahkamlanadi. Koptokcha o'quvchilar bo'ylab almashinadi. Musiqa to'xtatilganda koptokcha kimda qolsa, uni otgan o'quvchi o'sha o'quvchiga quyidagicha urgu ostidagi so'zlarni 4 ta tur bo'ginda o'qilishiga oid savol beradi. 1-o'quvchi: A unlisi 2-tur yopiq bo'ginda nechanchi son tovush bilan talaffuz qilinadi va unga misol keltiring.

2-o'quvchi: A unlisi 2-tur yopiq bo'ginda 4-sondag'i tovush bilan talaffuz qilinadi. M: mat, cat, hat. -Rasmlar so'zlaganda (When pictures speak) bu usul ham ancha qulay bo'lib, ingliz tilini o'rgatishda, talaba, o'quvchilarining o'g'zakni nutqini rivojlantirishda yordam beradi, buning uchun mavzuga oid rasmlardan foydalaniadi. Bu kabi o'yinlar til o'rganuvchilarda so'z boyliklarini hamda to'g'ri talaffuz qilish (pronunciation) oshirishga hordam beradi.

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, ta'limning interfaol usullari o'quv materiallarinin o'zlashtirish jarayonida o'quvchilarini faol fikrlashga va mashq qilishga undaydigan usullardir. Ushbu usullar ijobjiy ta'lim motivlarini shakllantiradi, o'quvchilarining ijodiy qolbiliyatlarini rivojlantiradi, o'quv jarayoniga o'quvchilarini faol jalb qiladi. Bu kabi o'yinlar yordamida til o'rganuvchi o'quvchilar nafaqat ingliz tilidagi so'zlarni to'g'ri talaffuz qilishga, balki ingliz tilini o'z ona tilidek bilishga undaydigan omillardan biri sanaladi, hamda bunday interfaol usullar zerikarli va tanish bo'lgan darslarni o'quvchilar uchun qiziqarli qiladi.

Maktab yoshidagi va boshlang'ich sinfda tahsil olayotgan bolalarda kuzatiladigan nutq bilan bog'liq bo'lgan kamchiliklarda asosan tovushlarni to'g'ri talaffuz qila olmaslik, so'z bo'g'inlarini bir-biriga qo'shib ayta olmaslik holatlari kuzatiladi. Mazkur holat yuqorida aytib o'tilgan ishlarda bolaning ikki holatida ruhiy zo'riqish bilan bog'liq holatda yoki tug'ma nutq 'FAN, JAMIYAT VA INNOVASYALAR Volume 2 Issue 14 Sentabr 2024

aparatidagi nuqson bilan (yoki tug'ilgandan so'ng orttirilgan nutq apparatiga oid nuqsonlar bilan) tasnif qilinadi. Birinchi holatdagi tabiiy yoki inson omili natijasida yuzaga kelgan nutq nuqsonlarini bartaraf etishda malakali pedagog bolaning ruhiyati bilan izchilikda ishlashi zarur bo'ladi. Bolaning erkin fikrashi uchun zarur sharoitlarni yaratish, uni diqqat bilan eshitish hamda tafakkur darajasini aniqlab olish eng asosiy maqsad hisoblanadi. Ikkinci holatda nutq apparatida sodir bo'lgan nuqsonlar bilan vujudga kelgan kamchiliklarni bartaraf etishda pedagogdan bola bilan alohida mashqlarni bajarish orqali undagi nutq bilan bog'liq muammolarni bartaraf etish talab etiladi.

Nutqida nuqsoni bo'lgan bolalar bilan ishslashda odatda bolaning qaysi tovushni talaffuz qilishda nuqsoni bo'lsa, o'sha tovush ishtirot etgan so'zlarni talaffuz qildirish orqali undagi nuqsonni tuzatish ishlari logopedik amaliyotda keng qo'llanadi. Bu jarayonda nuqson bilan talaffuz qilinayotgan tovush ishtirot etgan so'zlar uch xil ko'rinishda bolaga taqdim etiladi: ya'ni tovushning so'z boshida, so'z o'rtasida, so'z oxirida kelgan variantlarini tanlab olinib takroriy mashqlar orqali bolaning nutqiy qobiliyati oshirib boriladi. Biz mazkur ishimizda aynan shu yo'nalishning boshqa bir jihatiga e'tibor bergan holda, kichik yoshdagi bolalarning nutqidagi nuqsonlarni tuzatish haqida fikr yuritmoqchimiz. Aytaylik yuqorida logopedik amaliyotda bolalarga talaffuz qilishda qiynalayotgan tovushiga mos so'zlar ishtirot etgan buyumlar ko'rsatilib, ularning nomlarini aytib berish talab etilgan bo'lsa, biz tanlab olgan uslubda aynan bolalarning nutqida qaysi tovushni talaffuz qilishga qiyinchilik bo'lsa, shu tovushga mos tez aytishlarni tanlab olib, ularni mashq qildirish orqali bolalarning nutqidagi kamchiliklar tuzatish asosiy maqsad hisoblanadi. Barchaga ma'lumki, nutqda tovushlarni talaffuz qila olmaslik ikki xil holatda namoyon bo'ladi. Birinchi holatda unli tovushlar bilan bog'liq nuqsonlar bo'lsa, ikkinchi holatda undosh tovushlar bilan bog'liq holatlar hisoblanadi.

Nutqdagi unli tovushlar bilan bog'liq nuqsonni tuzatish jarayonida bolalarga quyidagi tez aytishlarni mashq qildirish ancha samara beradi:

Asalari asalni ayiqdan ayamadi.



Ogilbek odobli odil bola.

Birinchi tez aytishimizga e'tibor bersak "a" unlisini takror holda qo'llanilganiga, ikkinchisida esa "o" unlisini takror holda qo'llanilganiga guvoh bo'lamiz. Unli tovushlar hosil bo'lishida o'pkadan chiqayotgan havoning og'iz boshlig'ida hech qanday to'siqqa uchramay chiqishi asosiy omil bo'lishini inobtga olsak, mazkur tez aytishlardan unli tovushlarni talaffuz qilishda qiyinchilikka uchraydigan bolalarning nutqidagi nuqsonlarini bartaraf etish uchun foydalanish yaxshi samara beradi. Bu jarayonda bolaning tovushlarni talaffuz etish holatiga jiddiy e'tibor berish zarur. Undosh tovushlarni talaffuz qilishda o'pkadan chiqayotgan havo og'iz bo'shlig'ida ma'lim to'siqqa uchrab chiqadi. Agar bolalarda biror undosh tovushni talaffuz qilishda ma'lum nuqsonlar aniqlansa ularni tuzatish uchun undoshlar zidlanishiga asoslangan tez aytishlardan foydalanish muhim hisoblanadi. Masalan: "g" undoshini talaffuz qilishda qiyinchilikka uchraydigan bolalar uchun quydag'i tez aytishni mashq qildirish foydali:

Gunafshaning gullar ko'kni ko'rib gullabdi.

Mazkur tez aytishda "g" undoshi bilan birgalikda uning zidi "k" undoshi ham ishtirok etganligi tovushlarni talaffuz qilish jarayonida "g" va "k" undoshining hosil bo'lish o'rnida o'zaro bir xillikni namoyon qilsa ham, ammo ovoz va shovqin belgisiga ko'ra o'zaro zidlanadi. Tovushning aynan shu xususiyati tilning tovush hosil bo'lish jarayonida bevosita harakat nozikligini ta'minlash uchun asos bo'ladi. Agar mazkur tez aytish tartibli ravishda bir sistema asosida takrorlansa "g" yoki "k" undoshida nuqsoni mavjud bo'lgan bolalarning nutqini ravon qilishga katta yordam beradi.

Ra'no Ravshandan ranjidimi?

Ravshan Ra"nodan ranjidimi? "r" undoshiga asoslangan bu tez aytish ham bolalar uchun yaxshi samara beradi. Chunki kichik yoshli bolalarda "r" undoshini "y" holida talaffuz qilish holati juda ham ko'p uchraydi. Shu holatni oldini olishda ham "r" undoshi zidlanishiga asoslangan tez aytishlar yaxshi samara beradi.

Tez aytishlardan samarali foydalanish bolalarning nutqini ravon qilishda katta ahamiyat kasb etadi. Maktab yoshidagi va boshlang'ich sinfda tahsil olayotgan o'quvchilarning nutqini

FAN, JAMIYAT VA INNOVAYSIYALAR

Volume 2 Issue 14 Sentabr 2024

ravon qilish juda muhimdir, chunki mazku bolalarning hozirgi zamон talabi asosida jamiyatimiz ishlarida faolligini ta'minlashda ular nutqining ravonligi katta ahamiyatiga ega. Nutq – insonlararo aloqa vositasi bo'lganligi uchun ham har bir yosh avlodni nutqiy ko'nikmalarni puxta eggalashga o'rgatish davr talabidir.

Tez aytishlar ma'lum so'zni, so'z birikmasini yoki tovushni to'g'ri talaffuz qilishga, uni boshqa tovushlardan farqlashga o'rgatadigan, xotirani mustahkamlaydigan va nutqni o'stiradigan, o'qish sur'atini oshiradigan janr hisoblanadi. Shu sababli 1-sinfda ko'pgina tez aytishlar keltirilgan. Masalan, „Botir bbtmas botqoqqa“, „Qobil qozonda qo vurdoq qovurdi“, „Bahodir bayroqni Botirga berdimi, Botir Bahodirga bayroqni berdimi?“, „Olim oldidagi oltita olmani oldi“ va boshq. 2-sinfda esa quyidagi tez aytishlar keltirilgan: Qobil qahraton qishda qishloqda qishladi. Qahraton qishda Qobil qishladi.

Bu tez aytishni o'rgangandan keyin qish, qor, sovuq, muz, yax, yaxmalak, sumalak, ayoz so'zları ishtirokida hikoya tuzish o'quvchilarga topshiriladi. O'quvchilar quyidagicha hikoya tuzishlari mumkin. Qish keldi. Kunlar sovidi. Qor yog'a boshladi. Suvlar muzladi tarnovlardasumalaklar paydo bo'ldi. Biz bolalar yaxda yaxmalak ucha boshladik. Ayoz bobo oynalarga gul solib ketdi. Bunday hikoyalarni tuzish orqali o'quvchilarning fikrlash qobiliyati shakllanadi, dunyoqarashi kengayadi, og'zaki nutqi oshadi.

Eshik oldida buloq, buloqdan suv ichar uloq, uloqcham uzun quloq.

Qo'ng'iroq qo'g'irchoqnikimi, qo'zichoqnikimi?

Shuningdek 3-sinfda ham tez aytishlar keltirilgan:

Qishda qatiq qattiq qotib qolibdi.

Tolib tandir tagidan tanga topdi.

San'at saroyi - saroylarning sarasi.

Salimning sadadagi sap-sariq sa'vasi sahar sayraydi.

Shuni alohida ta'kidlab o'tish kerakki, boshlang'ich sinf darsliklariga o'quvchilar yoshiga mos, mavzular bo'yicha tanlab olingan. Nutqni eshitish va undan o'z tajribasida foydalanish natijasida bolalarda ongli ravishda ta'lim metodikasiga asoslanadigan "tilni sezish"



shakllanadi. Nutq o'stirishning metodik sharti nutqiy faoliyatning keng tizimini yaratish, ya'ni, birinchidan, ikki nutq namunasini idrok etish, ikkinchidan, o'rgangan til vositalaridan foydalanib, fikrini bayon etish uchun sharoit yaratish hisoblanadi. Tilni o'rganish jarayonida bolalarni turli xil rollarni bajarishga, bir-birlari bilan gaplashishi, o'yinchoqlari bilan muloqotda bo'lishga, o'z ismini va ota-onalarining ismini aytishga, boshqa bolaning ismini so'rashga o'rgatib borish zarur. Bu jarayonda bolalarning o'yin mashqlarini bajarishi orqali lug'at boyligi o'sib borishi bilan birga, so'zlarni bir-biriga moslashtirish, ularni o'z o'mida qo'llay bilish malakasi o'sadi.

Bolalar lug'atini boyitish, nutqining ravon, silliq va ta'sirchanligini ta'minlashda bolalar adabiyoti ustida ishslash, shubhasiz,

yaxshi natija beradi. Boshlang'ich sinflarda ayrim bolalar nutq madaniyati boshqa bolalarga qaraganda birmuncha yaxshi bo'la di. Ular so'zlarni to'g'ri talaffuz qiladilar, savollarga qiynalmay, erkin javob beradilar. Lekin ko'pchilik bolalar nutqida ba'zi nuqsonlar uchrab turadi. Masalan, s, z, sh, k, ch, b, p, g, j, r kabi undoshlar talaffuzida bu ko'proq seziladi. O'qituvchi bolalar bilan ishslashda shunday nuqsonlarni bartaraf etishga e'tibor berishi lozim. Buning uchun turli usul va vositalardan foydalanish mumkin. So'zlarning talaffuzi ustida maxsus qo'shimcha ish olib borilishi lozim. Buning uchun mashg'ulotning o'zi yetarli emas. Mashg'ulotdan tashqari sayr paytida, didaktik o'yinlar o'tkazilayotgan vaqtida bolalar bilan yakka tartibda ishslashga ham to'g'ri keladi.

### Foydalanilgan adabiyotlar

1. Botirova Muhlisa Dilshod qizi "Ingliz tilini o'rganuvchilarda fonetik xatolarni tuzatish uchun mashqlar". pedagogical sciences and teaching methods / 2022 – PART 18 /
2. "N.Q.Xatamova, M.N.Mirzayeva " Ingliz tili darslarida qöllaniladigan interfaol usullar" (Uslubiy qöllanma) "Navoiy" 2007-yil, 40-bet.
3. "Boshlang'ich sinflarda chet tillarni oqitishning psixologik asoslari va samarali texnologiyalari" ilmiy-metodik qöllanma, Toshkent 2015-yil, 7-bet.
4. Azimov A. The effect of social factors on language. (<http://ijpsss. icense. uz / index. php/ijpsss>
5. Azimov Akbarjon. The relationship between language and society (<https://wos.academiascience.org/index.php/wos/article/view/367>).
6. Azimov Akbarjon Niyozidin o'g'li "TEZ AYTISHLAR FONETIK TRENAJYOR SIFATIDA "SCIENCE AND INNOVATION INTERNATIONAL SCIENTIFIC JOURNAL VOLUME 1 ISSUE 7 UIF-2022: 8.2 | ISSN: 2181-3337
7. Nurmonov A. Tanlangan asarlar II jild. – Toshkent. Akademnashr 2012 – B.171.
8. Azimov Akbarjon Niyozidin o'g'li "TEZ AYTISHLAR FONETIK TRENAJYOR SIFATIDA" SCIENCE AND INNOVATION INTERNATIONAL SCIENTIFIC JOURNAL VOLUME 1 ISSUE 7 UIF-2022: 8.2 | ISSN: 2181-3337
9. R. Shomahmudova va bosh. Bolalar nutqida nuqsonlar va ularni bartaraf etish. – Toshkent. O'qituvchi. 1993. -B.76